

ALOXIDA YORDAMGA MUXTOJ (ДЦП) BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR

Masharipova Ro'za Ro'zmetovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
9-son KTIMTT defektologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aloxida yordamga muxtoj bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar, bolalardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yo'llari haqida so'z yuritiladi

KALITSO`ZLAR: ruhiy rivojlanish, integratsiyalashgan inklyuziv, differensial ta'lim, logopedik choralari, kompensatsiyalash, L.S. Vigotskiy

KIRISH

Har qanday jamiyat o'z farzandlarini har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib voyaga yetishni, munosib fuqarolar bo'lib, davlat tarrafiyotiga, gullab yashnashiga o'z ulushlarini qo'shishlariga harakat qiladi va umid bog'laydilar. Afsuski, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida bolalar hali ham huquqlaridan mahrum etilganlar, ya'ni ularning sog'-salomat hamma qatori to'laqonli rivojlanishlari va jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun kerakli imkoniyatlar yaratilmagan.

Maktabga qabul qilingan ayrim bolalar uni to'liq bitira olmayptilar, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uyda o'tiribdi, ta'lim olishdan mahrum, ayrimlarining ta'lim olishi chegaralangan. Kasallikni oldini olish mumkin bo'lgan joylarda hali ham juda ko'p bolalar xastaliklardan nobud bo'lmoqdalar, to'yib ovqat yeyish, toza ichimlik suvidan bahramand bo'lish ko'p mamlakatlarda hali ham to'liq tashkil etilmagan.

Davlatimiz tomonidan anomal bolalarga integratsiyalashgan inklyuziv xamda differensial ta'limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yo'llari ko'rib chiqilmoqda.

Anomaliyalar har xil bo'ladi, ulaming ba'zilari batamom bartaraf etiladi, ba'zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, boshqalari esa bilinmaydigan holga keltiriladi, ba'zilari esa kompensatsiyalanadi. Bola nutqida qo'pol kamchiliklar bo'lsa, to'g'ri tashkil etilgan logopedik choralarni o'z vaqtida ko'rish yo'li bilan ularni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion ishlar amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ulami tuzatib ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi, masalan, tug'ma ko'rlik yoki karlik shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash, o'mini bosipsh mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa imo-ishora, ya'ni daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

L.S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va ularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi.

L.S.Vigotskiy anomal bolada nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatini jalb etdi. U defektologiya sohasida katta nazariy meros qoldirdi va haqli ravishda defektologiya fanining asoschisi sanaladi.

Alohida yordamga muxtoj bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim tizimida birinchi navbatda bolaning talablari o'rganiladi, ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari o'rganiladi, Ushbu ta'lim tizimida ma'lum sharoit yaratilishi lozim. Bunga modifikatsiya, kompensatsiya, adaptatsiya, rehabilitatsiyalar kiradi. Masalan, agarda bola eshitmasa, uni eshitish apparati bilan ta'minlash, yura olmasa - nogironlar aravachasidan foydalanish, qo'lida oddiy qoshiq ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta'minlash va boshqalar.

Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muxtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirilgan va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxo'rlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me'yorda rivojlangan bolalar o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Inklyuziv-jalb etish (vkl'yucheniye) degan ma'noni anglatadi, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan o'zaro bog'lanib, birgalikda ta'lim olishidir. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga individual yondoshish, nuqsonidan kelib chiqqan xolda ma'lum u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bo'lsa, dastur va rejani qisman o'zgartirish va x.k. Anomal bola uyiga yaqin, o'ziga qulay ommaviy bog'cha yoki maktabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Har bir maktabgacha tarbiya muassasasida yoki maktabda maxsus tayyorlangan resurs tarbiyachi bo'lib, u guruh tarbiyachisiga maslahatlar beradi va ko'maklashadi: maxsus o'qitish uskunolari, apparatlari bilan ta'minlaydi; ota-onalar, o'qituvchilar bilan tushuntirish ishlari o'tkazadi: dars jadvali, dasturga, kerak bo'lsa, o'zgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi; o'qituvchilarni malakasini oshiradi, bilim mahoratini boyitadi; sog'likni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muhitni yaratadi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani oddiy bog'cha yoki maktabga joylashtirish integratsiya yo'lidagi birinchi qadam. Ta'lim integratsiyasining turli shakllari va darajalari mavjud. Jismoniy integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi jismoniy tafovut iloji boricha kamaytirilishi lozim. Buning uchun maxsus sinf yoki bo'lim tashkil etilishi mumkin. Funktsional integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi funktsional tafovut iloji boricha bartaraf etilishi lozim. Buning uchun alohida yordamga muxtoj bolalarni musiqa, san'at, drammatik to'garak va sportga jalb etish foydalidir.

XULOSA

O'zbekistonda defektologlarning olib borayotgan ishlari xam diqqatga sazovor. Maxsus muassasalarda olib borilayotgan ishlarda inklyuziv ta'lim elementlari talaygina. Ko'p yillardan beri umumta'lim maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablarda maxsus guruh, sinflar tashkil etilgan va muvaffaqiyatli o'z vazifalarini bajarib kelmoqdalar. Har bir rayondagi yordamchi mehnat ta'limi maktabi, me'yorda rivojlangan bolalar ta'lim oluvchi muassasalarda ulgurmovchi o'quvchilar bilan yil davomida ma'lum ishlarini olib borishmoqda, ular uchun maxsus sinflar tashkil etilgan. Bola uyiga yaqin joylashgan

maktabga qatnaydi. Yordamchi tenglashtiruvchi sinflar faoliyati, nutqiy guruh yoki sinflar faoliyati ham inklyuziv ta'lim shakllaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Raxmanova V.S. Defektologiya asoslari.-T ..1991
2. Inklyuziv ta'lim. - T u ve D jo nson M ejregion alnay a programma po obucheniyu invalidov (Opereyshin Mersi) Vsemirnbij forum po obrozovaniyu Zaklyuchitelniy doklad Nyu York, 1990
3. Bola huquqlari to`g`risida konvensiya. - O`zbekiston bolalar jamg`armasi.
4. K.K.Mamedov, G.B Shoumarov. V .P.Podobed Ruhiy rivojlanishi sustalashgan bolalar haqida T., 1993 Pulatova F.M. Oligofrenopedagogika
5. V. S . Raxmanova Maxsus pedagogika. T., 2005 7. T>.B.Shoumarov va boshqalar. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. T., " Mehnat".